O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

O‘ZBEKISTONDA BOLALAR VA AYOLLAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH, ULARGA YORDAM KO‘RSATISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH HAMDA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIKDAGI LOYIHALAR

Sultanova Nilufar

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda bolalar va ayollar manfaatlarini himoya qilish, ularga yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Bola huquqlari bo‘yicha vakil hamda UNICEF o‘rtasidagi hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: UNICEF, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), zo‘ravonlik, BMT, “kaltaklangan bola sindromi”, “oilaning ishi”, “zo‘rlanganlar” va “zo‘rlanmaganlar”, “bir pog‘ona pastda turish”.

ЗАЩИТА ИНТЕРЕСОВ ДЕТЕЙ И ЖЕНЩИН, ОКАЗАНИЕ ИМ ПОМОЩИ И ПОДДЕРЖКИ В УЗБЕКИСТАНЕ, А ТАКЖЕ ПРОЕКТЫ СОТРУДНИЧЕСТВА С ЗАРУБЕЖНЫМИ ГОСУДАРСТВАМИ

Султанова Нилуфар

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье представлены сведения о защите интересов детей и женщин в Узбекистане, оказании им помощи и поддержки, а также о проектах, реализуемых в сотрудничестве с зарубежными государствами. Особое внимание уделяется вопросам взаимодействия Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсмана), Уполномоченного по правам ребёнка и UNICEF.

Ключевые слова: UNICEF, Уполномоченный Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсман), насилие, ООН, «синдром избитого ребёнка», «семейное дело», «изнасилованные» и «не подвергшиеся изнасилованию», «на ступень ниже».

PROTECTION OF THE INTERESTS OF CHILDREN AND WOMEN, PROVISION OF ASSISTANCE AND SUPPORT IN UZBEKISTAN, AND COOPERATION PROJECTS WITH FOREIGN COUNTRIES

Sultanova Nilufar

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer.

Abstract.

This article provides information on the protection of the interests of children and women in Uzbekistan, the provision of assistance and support to them, as well as projects implemented in cooperation with foreign countries. Particular attention is given to cooperation between the Authorized Person of the Oliy Majlis for Human Rights (Ombudsman), the Commissioner for Children’s Rights, and UNICEF.

Keywords: UNICEF, Authorized Person of the Oliy Majlis for Human Rights (Ombudsman), violence, United Nations, “battered child syndrome,” “family matter,” “rape victims” and “non-victims of rape,” “being one step below.”

Kirish. Bizning xalqimiz azaldan bolajon va bolalarni sevuvchi xalq hisoblanadi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik — bu bola yoki bolalar guruhiga ota-ona yoki o‘qituvchi tomonidan jismoniy, jinsiy va/yoki ruhiy zo‘ravonlik qilinishi yoki umuman beparvolikdir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ota-ona yoki o‘qituvchining bolaga haqiqiy yoki potensial zarar yetkazishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat yoki harakatsizlikni o‘z ichiga olishi mumkin va bu holat odatda bolaning uyida yoki bola vaqt o‘tkazadigan tashkilotlar, maktablar yoki jamoat joylarida sodir bo‘ladi.

UNICEF bugun O‘zbekistonda bolalar va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka befarqlikdan ogohlantirdi va jamiyatning bunday holatlarga munosabatini o‘zgartirishga chaqirdi. Tashkilot zo‘ravonlikka uchraganlarni himoya qilish uchun oilani qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va samarali tizimlarni takomillashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari aks ettirilgan bir qancha videolavhalar tarqalganidan so‘ng, UNICEF odatiy hol bo‘lib ko‘ringan bunday holatlardan xavotirda ekanini bildirdi: ayrim hodisalar, jumladan, go‘daklar bilan bog‘liq bo‘lganlari, jamoatchilik ko‘z oldida va kuzatuvchilar ishtirokida sodir bo‘lmoqda. “Ayollar va bolalar, ayniqsa qizlar, har kuni zo‘ravonlikdan aziyat chekmoqda va bu, afsuski, maqbul, normal, yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan va ‘oilaning ishi’ deb qaraladi. Zo‘ravonlik holatlarining oldini olish mumkin”, — dedi UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade. “Zo‘ravonlikka barham berishda har kimning o‘rni bor. Odamlarning zo‘ravonlikka munosabatini o‘zgartirish, jazosiz qolishga chek qo‘yish, ijobiy tarbiya me’yorlari va amaliyotini targ‘ib qilish, jabrlanganlarga malakali yordam ko‘rsatish zarur”, — deya ta’kidlaydi. Dunyo bo‘ylab har to‘rt boladan biri zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi va har besh daqiqada bir bola zo‘ravonlikning turli shakllari tufayli vafot etadi. Bunday holatlarni erta aniqlash, ishonch telefonlari va maktablarda ish olib borish — ana shu isbotlangan samarali choralar zo‘ravonlikka qarshi kurashda yordam beradi. Yo‘naltirish mexanizmi bolalarni himoya qilish tizimini mustahkamlashning muhim boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, aniqlash va ularga qarshi kurashishda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va adliya sohalari mutaxassislarining roli va majburiyatlarini aniq belgilashi kerak.

Hozirda UNICEF O‘zbekistonda zo‘ravonlik holatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish sohasidagi davlat tuzilmalarining sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlamoqda. Masalan, Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar natijasida butun mamlakat bo‘ylab 50 000 nafar patronaj hamshira oilalarga tashrif buyurish uchun zarur ko‘nikma va materiallarga ega bo‘lib, ular boshqa masalalar qatorida bola tarbiyasini qo‘llab-quvvatlash, bolalar ehtiyojlariga befarqlik va jismoniy zo‘ravonlik holatlarini aniqlashlari mumkin. UNICEF, shuningdek, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash va ularga javob berish bo‘yicha standart protseduralarni ishlab chiqish va tatbiq etish borasida Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va sog‘liqni saqlash kotibiyatining Bolalarni himoya qilish bo‘yicha yangi sektori, Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya va Bolalar ombudsmani bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, UNICEF har bir holatni alohida ko‘rib chiqish (keys-menejment) tizimini kengaytirishda mamlakatga ko‘mak bermoqda. Mazkur tizim oilalar ehtiyojlarini keng miqyosda ko‘rish, xavflarni aniqlash va oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun ularni tegishli xizmatlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar bilan bir qatorda ijtimoiy ishchilar institutini yaratish va bu muammoni tizimli hal qilish uchun butun jamiyatni safarbar etish zarur.

“Mamlakatimiz aholisining 40 foizidan ortig‘ini 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi, — dedi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil Aliya Yunusova. — O‘zbekiston inson huquqlari sohasidagi 70 dan ortiq xalqaro shartnomaga a’zo bo‘lgan, mamlakatimizda bola huquqlarini ta’minlash va himoya qilish sohasida mustahkam milliy huquqiy baza ham yaratilgan. Biz o‘z faoliyatimizda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish kafolatlarini ta’minlash, himoya qilish mexanizmini takomillashtirish, bolalar va ularning qonuniy vakillari orasida tushuntirish ishlarini olib borish, davlat hokimiyati organlari, mahalliy hokimiyat organlari, jamoatchilik va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga ko‘maklashish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar bilan shug‘ullanamiz. Bola huquqlari sohasida Harakatlar strategiyasi doirasida belgilangan maqsad-vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun ‘Taraqqiyot strategiyasi’ markazi bilan o‘zaro hamkorlik qilish biz uchun ahamiyatli va ishonamanki, birgalikdagi bu sa’y-harakatlarimiz samarali bo‘ladi hamda kutilgan natijalarni beradi”.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Bola huquqlari bo‘yicha vakil hamda UNICEF hamkorligida O‘zbekiston tajribasiga asoslanib, “Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida qurolli mojaro hududlaridagi bolalar va ayollarni o‘z vataniga qaytarish va ularni jamiyatga samarali reintegratsiyasi bo‘yicha xalqaro hamkorlik” mavzusida onlayn konferensiya o‘tkazildi. Mazkur konferensiyada Inson huquqlari bo‘yicha vakil — Arujan Sain, Qirg‘iziston Respublikasi Ombudsmani kotibiyatining bolalar, ayollar va oilalar huquqini himoya qilish bo‘limi mutaxassisi — Bubusara Anarbek qizi, UNICEFning Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy direktori — Afshan Xan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy bo‘limi vakili janob Rishard Komenda, BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakili — Matilda Dimovska, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasining rahbari — Ashita Mittal, “BMT-Ayollar” tuzilmasining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy vakili — Iris Byork Kristyansdottir, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti vakillari, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasi vakillari, UNICEFning Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmanistondagi vakolatxonalari rahbarlari, UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, Rossiya Federatsiyasi va AQSH elchixonalarining vakillari, davlat organlari, vazirliklar, idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, Bola huquqlari bo‘yicha vakilning mintaqaviy vakillari hamda OAV vakillari ishtirok etdi. Konferensiyaning maqsadi Yaqin Sharqdagi qurolli to‘qnashuvlardan jabr ko‘rgan bolalar va ayollarni vataniga qaytarish va qayta tiklash bo‘yicha tajriba almashish, yutuqlar va qiyinchiliklarni muhokama qilish hamda ayollar va bolalar repatriatsiyasi va reintegratsiyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ta’kidlanishicha, 2019-yilda O‘zbekiston hukumati birinchilardan bo‘lib Iroq va Suriyadagi qurolli to‘qnashuvlar va

jangovar harakatlar natijasida jabr ko‘rgan o‘z fuqarolarini, asosan ayollar va bolalarni vataniga qaytarishni amalga oshirdi. Shu yildan boshlab Iroq, Suriya va Afg‘onistondagi qurolli to‘qnashuvlar va jangovar harakatlar natijasida jabr ko‘rgan bolalarni qaytarish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib bormoqda. E’tiborlisi, mamlakatlar ichida birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston vataniga qaytarilgan fuqarolarini o‘z himoyasiga oldi. Bugungi kunga qadar O‘zbekiston “Mehr” insonparvarlik operatsiyalari doirasida, Qozog‘iston “Jusan” va “Rusafa” operatsiyalari doirasida, Tojikiston, Qirg‘iziston hamda Rossiya Federatsiyasi o‘z fuqarolarini vataniga qaytardi. O‘zga yurtga borib qolib, og‘ir hayotiy davrni boshidan o‘tkazgan bu insonlarga hukumatimiz tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatildi. Ularning tinch hayotga qaytib, jamiyatga moslashishlari, ta’lim va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etishlari uchun zarur sharoit yaratildi, boshpana va ish bilan ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova: “Migratsiya paytida bolalarni himoya qilish va ularning asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklash bilan bog‘liq xavf katta tashvish tug‘diradi. Bolaning manfaatlari doimo migratsiya siyosati va amaliyotining markazida bo‘lishi kerak. Migratsiya siyosati migratsiya ta’sirida bo‘lgan bolalar milliy tizimlardan, shu jumladan himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, adolat va ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlashi, oilaviy hayot va oilani birlashtirish huquqini hurmat qilishi hamda qo‘llab-quvvatlashi kerak”.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari, Bola huquqlari bo‘yicha vakil Aliya Yunusova: “Bola huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada belgilangan prinsiplar bizning ishimiz uchun asos bo‘lib, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga himoya, g‘amxo‘rlik, jumladan, huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga alohida g‘amxo‘rlikni amalga oshirishga asoslangan. Huquqlar barcha bolalar uchun istisnolarsiz va bolaning o‘ziga yoki uning oilasiga tegishli har qanday asos yoki boshqa holatlar bo‘yicha farqlanish va kamsitishlarsiz tan olinadi. Bola, har qanday holatda ham, himoya va yordamni birinchi bo‘lib olishi kerak. Afsuski, hozir ham qurolli to‘qnashuvlar va jangovar harakatlar hududlari mavjud. Natijada bolalar o‘lmoqda, ko‘plab bolalar ota-ona qaramog‘isiz qolmoqda”.[1]

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish atamalari ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi. Shunga qaramay, ba’zi tadqiqotchilar bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish atamasini beparvolik, ekspluatatsiya va odam savdosini o‘z ichiga oluvchi soyabon sifatida ko‘rishadi. Turli yurisdiksiyalar shartli hisobot berish, turli hollarda bolalarni o‘z oilalaridan ajratish yoki jinoiy ayblov e’lon qilish uchun bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining turli ta’riflariga nisbatan o‘z pozitsiyalarini ishlab chiqishgan. Rus olimlari N. V. Malyarova, M. Nesmeyanovlar ijtimoiy himoyaning ikki ma’nosi haqida so‘z yuritadilar.

Birinchidan, keng ma’noda, inson o‘zini o‘zi ta’minlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, u va uning farzandlari uchun sharoit yaratadigan ijtimoiy munosabatlar tizimini nazarda tutadi. XIX asrning oxirlarida ish beruvchilar va o‘qituvchilar tomonidan bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘linishi odatiy va keng tarqalgan hol bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda jismoniy jazo qo‘llash tartibi tabiiydek qabul qilinardi.

Ammo XIX asrning birinchi yarmida filitsid holatlarini (ota-onalar tomonidan bolalarning o‘ldirilishi) o‘rganuvchi patologanatomlar otalik g‘azabi, takroriy jismoniy zo‘ravonlik, ochlik va jinsiy zo‘ravonlik natijasida sodir bo‘lgan o‘lim holatlari haqida xabar berishdi.

1860-yilgi izlanishlarida buyuk fransuz sud tibbiyoti eksperti Auguste Ambroise Tardieu 32 ta shunday holatni qayd etdi, ulardan 18 tasi o‘limga olib kelgan bo‘lib, bolalar ochlik yoki takroriy jismoniy zo‘ravonlik oqibatida halok bo‘lgan; ular orasida 8 yoshida bobosi va buvisi tomonidan qaytarib berilgan va 9 yil davomida ota-onasi tomonidan qiynoqqa solingan, har kuni qamchilangan, bosh barmoqlariga osib qo‘yilgan, mixlangan taxta bilan kaltaklangan va issiq cho‘g‘ bilan kuydirilgan Adeline Defirt ismli qiz bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning yaralari nitrat kislota bilan yuvilib, tayoq bilan defloratsiya qilingan.

Tardieu bolalar himoyaga olingan uyga tashrif buyuradi va ularning bu yerga kelgandan keyingi holatlarini kuzatadi; himoyaga olinganda bolalarning yuzlaridagi qayg‘u va qo‘rquv yo‘qolgan edi. U shunday deydi: “Biz har kuni deyarli soatlab vahshiyliklarga, tasavvur qilib bo‘lmaydigan qiynoqlarga va og‘ir ko‘rguliklarga duchor bo‘lgan bu bechora himoyasiz bolalarning hali go‘dakligini hisobga olsak, ularning hayoti bir umrlik shahidlikdir — va biz ularning azoblovchilari aynan ularga hayot bergan onalari ekanligiga duch kelganimizda, biz axloqchining qalbi yoki adolat vijdonini bezovta qiladigan eng dahshatli muammolardan biriga duch kelamiz”. Uning kuzatuvlari Boileau de Castélnau (u misopédie — bolalarga nafrat atamasini hayotga tatbiq qilgan) tomonidan yangraydi va Aubry hamda bir nechta tezislar bilan tasdiqlanadi.

Natijada 1960-yillarda mavzu bo‘yicha professional tadqiqotlar yana boshlab yuborildi. 1962-yil iyul oyida asosan pediatrik psixiatriya bilan shug‘ullanuvchi C. Genri Kempe tomonidan yozilgan va Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi jurnalida chop etilgan “Kaltaklangan bola sindromi” maqolasining nashri bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo‘lish umumiy tushunchaga kirgan paytni anglatadi.

Maqola nashr etilishidan oldin bolalarning shikastlanishi, hatto suyaklarning takroriy sinishi ham qasddan sodir etilgan jarohatlar natijasi sifatida tan olinmagan. Buning o‘rniga o‘sha paytlarda shifokorlar ko‘pincha boladan tashxis qo‘yilmagan suyak kasalliklarini qidirdilar yoki ota-onalarning tasodifiy baxtsiz hodisalar, masalan, qo‘shni bezori bolalar tomonidan chaqaloqning yiqitib qo‘yilishi kabi versiyalarini haqiqat deb qabul qildilar.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini o‘rganish akademik intizom sifatida 1970-yillarning boshlarida Qo‘shma

Shtatlarda paydo bo‘lgan. Elisabeth Young-Bruehlning ta’kidlashicha, bolalar huquqlari himoyachilari soni va bolalarni himoya qilishga qiziqish ko‘rsatkichlari ortib borayotganligiga qaramay, bolalarni “zo‘rlanganlar” va “zo‘rlanmaganlar” guruhlariga bo‘lish bolalar huquqlari tushunchasini toraytiruvchi sun’iy farqni keltirib chiqardi va bolalarning jamiyatda qanday kamsitilganini tekshirish harakatlariga ma’lum ma’noda to‘sqinlik qildi. Young-Bruehlning so‘zlariga ko‘ra, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va ularga nisbatan loqaydlik holatlarini o‘rganishning yana bir sababi bolalarning o‘zlari shafqatsizlikni qanday qabul qilishlari va kattalarning ularga bo‘lgan munosabatiga ahamiyat berishlari borasidagi izlanishlar edi. Young-Bruehlga ko‘ra, toki jamiyatda bolalarning kattalardan “bir pog‘ona pastda turish”lari haqida qarashlar mavjud ekan, zo‘ravonlik holatlari yuz berish-bermasligidan qat’i nazar, barcha bolalar azoblanadi. Bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabat tushunchasining ta’riflari jamiyatning ushbu muammo bilan shug‘ullanuvchi sohalari, masalan, bolalarni himoya qilish agentliklari, yuridik va tibbiy jamoalar, sog‘liqni saqlash xodimlari, tadqiqotchilar, amaliyotchilar va bolalar himoyachilari o‘rtasida bir-biridan farq qilishi mumkin. Ushbu turli sohalar vakillarining har biri o‘zlarining ta’riflaridan foydalanishga moyil bo‘lganligi sababli fanlar bo‘ylab muloqot cheklangan bo‘lishi mumkin, bu bolalarga nisbatan yomon munosabatni aniqlash, baholash, kuzatish, davolash va oldini olish harakatlariga to‘sqinlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son Qarori. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son Qarori. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qarori. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
4. Abdullayeva O‘. *Pedagogik texnologiya.* – Toshkent: TDPU, 2015. – 166 b.
5. Mavlonova A., Rahmonqulova N. H., Matnazarova K. O., Shirinov M. K., Hafizov S. *Umumiy pedagogika.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.
6. Axmedjanov M. M., Olimov Sh. Sh., Avezov S. S. *Pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: LESSON PRESS, 2018. – 92 b.
7. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011. – 424 b.
8. Ma’murov B. B. *O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari: monografiya.* – Toshkent: Nihol, 2014.
9. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Nihol, 2013.
10. Omonov H. T., Xattabov M. B. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 200 b.
11. Sultanova N. Bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik holatlarining oqibatlari // *International Journal of Scientific Researchers.* – 2025. – Vol. 10, Issue 2. – ISSN 3030-332X.
12. UNICEF. Rasmiy veb-sayt. – Manba
13. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Manba